



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MILLIY QADRIYATLAR VA AN'ANAVIY TARBIYA G'OYALARINI SHAKLLANTIRISH

MUAMMOSINING DOLZARBLIGI

Boymurodova Shalola Ibodullayevna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi
1-kurs magistranti

Email: hokimyat_stroy@umail.uz

<https://orcid.org/0009-0006-8531-5571>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18385520>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 24-yanvar 2026 yil

Nashr qilindi: 27-yanvar 2026 yil

KEY WORDS

boshlang'ich ta'lim, milliy qadriyatlar, an'anaviy tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik texnologiyalar, milliy o'zlikni anglash

ABSTRACT

Ushbu maqolada butun jahon zamonaviylashuvi rivojlangan sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy o'zlikni anglash, qadriyat va urf-odatlariga hurmat bilan qarash o'quv-amaliy malakasini shakllantirish dolzarb tarbiyaviy vazifalardan biridir. Mazkur jarayonning metodik asosida tashkil etilishi ta'limning natijadorligiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi

Butun jahonda globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda yosh avlodni milliy qadriyatlar urf-odatlar va an'anaviy tarbiya g'oyalari asosida tarbiyalash ta'lim tizimining muhim ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, ma'naviy-axloqiy fazilatlar va ijtimoiy xulq-atvor asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'lim va tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini alohida ta'kidlab, "Ta'lim-tarbiya — bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasidir", deya qayd etgan. Quydagi fikr boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar va an'anaviy tarbiya g'oyalarini singdirish zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida shakllantirish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu sababdan, boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlar va an'anaviy tarbiya g'oyalarini shakllantirish muammosining o'ta muhurligi va dolzarbligini ilmiy jihatdan tahlil qilish ushbu maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

O'zbekistonda ta'lim jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi sifatida ustuvor hisoblanadi. Milliy ta'lim siyosati va asoslari talabalarda nafaqat akademik mukammallikni, balki axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni tarbiyalashning muhimligini ta'kidlaydi. Hukumat yosh avlodda mas'uliyatli fuqarolik, ijtimoiy hamjihatlik va madaniy o'ziga xoslikni rivojlantirishga qaratilgan qadriyatlar ta'limini maktab o'quv dasturiga kiritish bo'yicha bir qancha tashabbuslarni amalga oshirdi ¹

¹ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son "TA'LIM TO'G'RISIDA"
<https://lex.uz/docs/-5013007>

Tadqiqot metodlari. Mazkur maqolani yozishda qidiruv usullaridan samarali foydalanildi. Bunda qiyosiy tahlil, so'rovnoma usullaridan ham kengroq foydalanildi. Qidiruv tizimlaridan asosan google qidiruv tizimi, rambler, yandex qidiruv tizimlari hamda scopus ma'lumotlar bazasidan kengroq foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotimiz doirasida respublikada bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan A.K.Kadrekovaning ta'lim tizimida milliy qadriyatlarini o'quvchilarga singdirishning ahamiyati, usullari va amaliy ahvoli tahlil qilingan. Bolalarning shaxs sifatida shakllanishida milliy o'zlik, urf-odatlar, an'analar va axloqiy me'yorlarning erta bosqichdanoq ongiga singdirilishi ularning kelajakdagi ijtimoiy va ma'naviy hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda o'qituvchilarning roli, darsliklar va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning ahamiyati nomli maqolasida bir qancha ilmiy farazlar hamda qarashlar o'z isbotini topgan.

Maxtuma Qurbonovaning boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar o'quvchi shaxsining ma'naviy, axloqiy va estetik kamolotini shakllantirishda muhim omil sifatida baholanadi. Maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida milliy g'oya va an'analarni o'quv-tarbiyaviy jarayonga singdirish yo'llari, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, milliy bayramlar tahlil qilingan.

Mahmudova Nigoraning boy tarixiy merosimiz bo'lmish milliy qadriyatlarimiz jamiyatning ajralmas qismiga aylangani haqida so'z yuritiladi. Jumladan, yosh avlodni ma'naviyatli qilish, ota-bobolarga bo'lgan hurmatni oshirish haqida to'xtalib o'tilgan. Yoshlarni ma'naviyatli shaxslar bo'lib yetishishi uchun nimalarga e'tibor qaratish kerakligi haqida to'liq o'rganilgan.

Ahmadaliyeva Munisaxon Abduqodirovnaning Boshlang'ich ta'lim o'quvchining shakllanishi, rivojlanishi uchun muhim davr hisoblanadi. Bu davrda bolaga berilgan bilim va ko'nikmalarni tizimli ravishda olib borish bevosita yangi talablar asosida yaratilayotgan darsliklarga ham borib taqaladi. Umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflarning darsliklarida berilgan mavzular o'quvchilarda milliy tarbiyaning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarining milliy tarbiyasida uning muomala odobi, tarbiya qoidalariga rioya qilishi hamda boshqalarga nisbatan munosabatlarining barcha ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Maktabda milliy tarbiyani shakllantirish jarayonida boshlang'ich o'quvchilarining axloqiy sifatlari tarkib topadi va ilk axloqiy sifatlar shakllantiriladi. Jumladan, odamiylik, jonkuyarlik, mehribonlik, g'oyaviy sodiqlik, kechirimlilik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, andishalilik, yaxshi, mehr-oqibatlilik, muomala. Shu sifatlarni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirishda turli xil usul va vositalarni ishlab chiqib, ta'lim tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, unga mos ishlanmalar yaratish, milliy tarbiyalashda bolalarning yoshini hisobga olgan holda didaktik materiallar tanlash, boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos holda pedagogik va psixologik ta'siri ko'rsatish usullarini tanlash bugungi kunning dolzarb chuqur tahlil qilingan.

Ayniqsa Ismoilova Masturaxon Axmadaliyevna milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalash va o'zaro munosabatlarini shakllantirish, milliy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirishning ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizdagi ahamiyati, oila va qadriyatlarining abadiy bir-biri bilan chambarchas bog'langanligi, bu jarayonlarda oila va ta'lim muassasalarini hamkorligini tashkil etish, bolalarga oiladagi munosabatining ijobiy darajasi to'g'risida keng yoritib berilgan.

Natija va muhokama. O'rganilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlar va an'anaviy tarbiya g'oyalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayonlar tahlil qilindi. O'tkazilgan so'rovnomalar va qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, dars jarayonida milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning ongida ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Aniqlanishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy o'zlikni anglash, urf-odatlariga hurmat, kattalarga hurmat, ehtirom, jamoada o'zini tutish madaniyati kabi sifatlar asosan an'anaviy tarbiya elementlari bilan boyitilgan darslar asosida shakllanadi. Milliy bayramlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, maqol va matallar, milliy o'yinlardan keng foydalanilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning qiziqishini oshirgan hamda tarbiyaviy ta'sir kuchini kuchaytirgan.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan milliy tarbiya usullari ta'lim jarayonining yanada samaradorligini oshiradi. O'qituvchining maqsadga yo'naltirilgan metodik yondashuvi, darsliklar va sinfdan tashqari faoliyatlarda milliy qadriyatlarga tayangan holda dars o'tishi ijobiy natijalarga olib kelmoqda.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim bosqichi milliy qadriyatlar va an'anaviy tarbiya g'oyalarini shakllantirish uchun eng muhim davr hisoblanadi. Bu davrda o'quvchilarning ongida axloqiy me'yorlar, ijtimoiy xulq-atvor va milliy o'ziga xoslikka oid dastlabki tasavvurlar vujudga keladi.

Tadqiqot davomida o'rganilgan ilmiy manbalar natijalari bilan solishtirilganda, mazkur izlanish xulosalari A.K. Kadrekova, M. Qurbonova, N. Mahmudova hamda M. Ahmadaliyeva kabi olimlarning qarashlarini tasdiqlaydi. Ularning tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, milliy tarbiyani erta yoshdan boshlab tizimli ravishda singdirish o'quvchi shaxsining barkamol, yetuk shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, turli muhokamalar natijasida oila va ta'lim muassasalari hamkorligining ahamiyati alohida e'tirof etildi. Ota-onalar va pedagoglarning uzviy hamkorligi milliy qadriyatlarning uzluksiz davomiyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, oiladagi ijobiy tarbiyaviy muhit maktabdagi tarbiyaviy ishlar samaradorligini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, globallashtirish jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi zamonda boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlar va an'anaviy tarbiya g'oyalarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida samarali shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy o'zlikni anglash, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim eng samarali hisoblanadi.

Dars jarayonida turli tarxiiy buyumlar, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar va milliy an'analarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirib foydalanish o'quvchilarning tarbiyaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'qituvchining kasbiy mahorati hamda oila va maktab hamkorligi mazkur jarayonning uzluksiz va samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Natijada barkamol, ma'naviy yetuk va milliy ongli shaxsni tarbiyalash imkoniyati yanada kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Olimov, Shirinboy Sharofovich, and Xhusniddin Kupayinovich Khomidov. "Preparing Future Teachers To Solve The Tasks Of Patriotic Education Of Children And Youth." *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 2.12 (2020): 132-136.

2. Khomidov, Khusniddin Kupaysinovich. "Cooperation between state and public organizations in the meaningful organization of youth leisure activities." *Thematics Journal of Social Sciences* 7 (2021).
3. Kupaysinovich, Khomidov Khusniddin. "INTERPRETATION OF STUDENTS' PATRIOTIC ISSUES IN ORIENTAL PEDAGOGY." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 7 (2019).
4. Ҳомидов, Ҳусниддин, and Моҳинур Собирова. "ПЕДАГОГЛАРДА КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МАЗМУНИ ВА МОҲИЯТИ." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 3.10 (2024): 24-27.
5. Kupaysinovich, Homidov Husniddin. "Theoretical Foundations of Working with Educational Information Competencies." *Journal of Preschool Education and Psychology Research* 1.2 (2024): 3-4.
6. Хомидов, Хусниддин, and Моҳинур Умирова. "ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ УЧАЩИХСЯ." *Международная конференция академических наук. Vol. 3. No. 12. 2024.*
7. Homidov, H. K. "Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishning amaldagi holati va takomillashtirish yo'llari." *Экономика и социум* 5-1 (108) (2023): 83-87.
8. Купайсинович, Ҳомидов Ҳусниддин. "ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЖАМОАТ ТАШКИЛОТЛАРНИНГ РОЛИ." *НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021* 1: 561.
9. Tursunova, Marjona, and Husniddin Homidov. "TECHNOLOGIES OF USING THE ORAL CREATION OF THE TURKISH PEOPLE IN THE SPIRITUAL ETHICAL EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS." *ТА'ЛИМ, ФАН ВА INNOVATSIYA*